O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yil 28 fevralda qabul qilingan, Senat tomonidan 2007 yil 29 martda ma`qullangan, 2007 yil 11 aprelda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan va 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda

¹ «Сийсий партияларнинг институциявийлашуви» ўзида икки шаклни мужассам этади: сийсий ва юридик институциявийлашувни. Биринчиси бу сийсий институт сифатида расмийлаштирилган ташкилотнинг шаклланиши жараёни бўлиб, у ҳуқуқий нормалар билан эмас, балки партия (корпоратив) нормалари (устав, дастур, ички регламент ва ҳ.к.) билан амалга оширилади; иккинчиси бу «партияларни шакллантириш, ташкиллаштириш ва улар фаолияти билан боғлиқ бўлган комплекс муносабатлар ҳуқуқини тартибга солиш орқали уларни ҳуқуқий институтга айлантириш жараёнидир» (Юдин Ю.А. Политические партии и право в современном государстве. М.: 1998. С.5.) Бу ерда гап сийсий партияларни *де-юре* тан олишда, улар ҳуқуқий мақомини қарор топтиришда бормоқда. Сийсий партиялар институциявийлашувининг мазкур иккала шакли ўз вақтлари билан фарқлансада (партияларнинг сийсий институт сифатида шаклланиши улар юридик тартибга солинишидан аввал содир бўлади), улар ўзаро боғлиқдир. Партияларнинг институциявийлашуви тўғрисида батафсил маълумот олиш учун қаранг: Заславский С.Е. Политические партии в России: проблемы правовой институционализации. М.: 2003.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ведомостлари, 1992. № 2. 363-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 1997. № 4-5. 126-модда; 1998 № 3. 38-модда.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 1997. № 2. 36-модда.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 2004. № 5. 86-модда.

siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonuni bilan izohlanadi¹.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Prezident I.A.Karimov yuqoridagi qonun loyihasini Konstitutsiyaning 83-moddasidagi qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalangan holda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish bilan birga unga sharhlarni ham taqdim etdi. Mazkur hujjatda qonun loyihalarini kiritishdan asosiy maqsad va vazifalar nimalardan iborat ekanligi aniq va ravshan tushuntirib berilgan. Qonun loyihalarining mazmyn-mohiyati, ularning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar, bu qonunlarning qabul qilinishi bilan davlat boshqaruvini yangilash, yanada demokratlashtirish va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning tutgan o'rni va rolini kuchaytirish, bu bilan, avvalo, aholining siyosiy va huquqiy ongini yuksaltirish, davlat boshqaruvini amalga oshirishda ularning xohish-irodasini yanada kengroq ro'yobga shiqarish ekanligi to'liq ochib berilgan².

Mazkur qonun loyihalarini tayyorlashning amaliy extiyoji, asosiy omillari va sabablari haqida Yurtboshimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ryzasida alohida to'xtalib, shunday dedi: «**...birinchidan**, yurtimizda olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va davom ettirish maqsadida amalda o'zini oqlagan bosqichma-bosqich pivojlanish, yo'lidan izshil borib, islohotlarning bir bosqichi oxiriga etishi bilan ularni yangi bosqichga ko'tarish zaruratini ta'kidlash zarur; **ikkinchidan**, mustaqillik davrida siyosiy partiyalarning amaliy tajribasi, siyosiy nufuzi ortgani va pishib etilganini hisobga olgan holda, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va hayotimizda hal qiluvshi siyosiy kuchga aylantirish uchun qonuniy yo'l-yo'riqlarni yaratib berishni bugun zamonning o'zi talab qilayotganini qayd etish zarur; **uchinchidan**, hozirgi kunda halqimizning siyosiy etukligi va ijtimoiy faolligi tobora ortib borayotganini inobatga olishimiz va shunga qarab siyosat olib borish zaruratini unutmasligimiz kerak»¹.

Mazkur konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi siyosiy-institutsional va demokratik boshqaruv nuqtai nazaridan o'ta muhim qadam bo'ldi. Aynan ushbu Konstitutsiyaviy qonun bilan mantiqan uzviylikda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddaning 15 bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. 2007. № ЎРҚ -88.

² Қаранг: Исмоилов Н. Эзгу мақсадларга хизмат қилади. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2007 йил 1-сон. 32-бет.

tuzatishlar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni mustaqilligimiz sharofati ila dnyyoga kelgan asosiy qonunimizga yanada shaffoflik va amaliy samaradorlik ruhini berdi.

E'tiborga molik jihati shundaki, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi e'lon qilinishi bilanoq, ko'plab xorijlik mutaxassislar o'zlarining xolis munosabatlarini bildira boshladilar, Jumladan Evropa Komissiyasi eksperti X.Podpiges uni demokratik islohotlar yo'lidagi «mustahkam metodologik asos» deb atadi. Rossiyalik mutaxassis B.Togonyanning fikricha, «bu mamlakat ichida ko'plab siyosiy masalalarni hal etish yo'lidagi spategik qadamdir»². Frantsiya Senati a'zosi, «Frantsiya Markaziy Osiyo» parlamentlararo guruhining raisi A.Dyule esa, bu haqida quyidagicha fikr bildiradi: «siyosiy partiyalar rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan qonun loyihasi va shu munosabat bilan Konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgarishlar islohotlar strategiyasini amalga oshirishdagi muhim qadam bo'ldi. Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidentining muxolifat partiyalarning huquqlari to'g'risidagi taklifi, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat siyosiy va ijtimoiy-huquqiy hayotida ro'y berayotgan bu o'zgapishlar inson huquqlari va fyndamental erkinliklari sohasidagi islohotlar samarador va izchil ekanligidan dalolat beradi»³.

Darhaqiqat, mazkur qonunlar demokratik huquqiy davlat bappo etish jarayonida siyosiy partiyalar uchun keng imkoniyatlar yapatib bepadi. Yuqoridagi qonunlarning amaliy ahamiyati to'g'risida huquqshynos A.X.Saidov quyidagicha fikr bildiradi: «siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'mini kuchaytirishda bu qonunlarning qabul qilinishi jamiyatimiz hayotida fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshiradi. Demokratik islohotlarimizning maqsadli vazifalarini bajarishda ijro etuvchi hokimiyat tomonidan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishda siyosiy partiyalar tashabbuskorligi va mas'uliyatini yanada kuchaytiradi. Ushbu qonunlarning o'ziga xos xysysiyatlari va yangiliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mymkin:

Birinchidan, qonunlar, bir tarafdand parlament islohotlarining mantiqiy davomi bo'lsa, ikkinchi tarafdand, ijroiya hokimiyatiga ta'sir etuvshi ishonchli mexanizm yaratishning huquqiy

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 14 йиллигига багишланган тантанали маросимдаги маърузасидан. Халқ сўзи. 2006 йил 8 декабрь. № 240 (4139)

² Отклики и оценки представителей зарубежных общественно-политических кругов об инициированных Президентом Республики Узбекистан И.А.Каримовым проектах Конституционного закона «Об усилении роли политических партий в обновлении и дальнейшей демократизации государственного управления и модернизации страны» и Закона «О внесении правок в отдельные статьи (статья 89; п. 15 статьи 93; ч. 2 статьи 102) Конституции Республики Узбекистан», Т.: ИСМИ при Президенте Республики Узбекистан. 2007. -С. 45-52.

³ Қаранг: Сиёсий партиялар ва жамиятни демократлаштириш // Конституциявий ислохотларнинг узвий давоми. «Эътироф» Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2007. 1-сон. 35-бет.

dasturilamalidir. Siyosiy partiyalarga katta huquq va imkoniyatlar bepilishi, yilkan ishonsh bildirilishi bilan birga, ijro etuvchi hokimiyatga Bosh vazir va hokimlarga muayyan mas'uliyat yuklamoqda. Bu hujjatlar, shuningdek siyosiy partiyalarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirish borasidagi funktsiyalarini kengaytirish bilan ham ularning faoliyatida tub burilish yasaydi.

Ikkinchidan, konstitutsiyaviy qonunda parlament doirasidagi muholifat masalasiga mutlaqo yangicha yondashilgan. Bir tomondan, muholifat faoliyati ilk bop qonuniylashtirilmoqda, ikkinchi tomondan, ynga bir qator huquq va imkoniyatlar berilmoqda, uchinchi tomondan, endilikda parlament dapajasida emas, balki hykymat dasturiga nisbatan muholifat bo`lish amaliyoti huquqiy mystahkamlanmokda. Bu jahon parlamentapizmining asosiy tendentsiyalariga to`la mosdip.

Uchinchidan, ma'lumki, siyosiy partiyalarning ayni vaqtda mahalliy Kengashlardagi deputatlar guruhleri faoliyati sezilarli ham, qoniqarli ham emas. Ushbu qonunlarning qabul qilinishi joylardagi ana shy siyosiy kuchlarning faollashishi va umuman, siyosiy partiyalarning rivoji uchun katta turtki bo`ladi.

To`rtinchidan, qonunlardagi yangiliklar har bir siyosiy partiyadan, yning fraktsiyasidan ham, deputatlik guruhlaridan ham o`z vakolatlariga yanada mas'yuliyat bilan yondashib, aholi o`rtasida yanada jonli va samarali ishlashni talab etadi»¹.

«Mazkur qonunlarning qabul qilinishi natijasida, deya fikr bildiradi huquqshunos olim M.Pajabova, birinchidan, xalqning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy faolliigi yanada oshadi, ikkinchidan, ijro etuvchi hokimiyat davlatning ichki va tashqi siyosati bilan bog`liq maqsadli vazifalarni amalga oshirishdagi mas'yuliyati hamda siyosiy partiyalarning tashabbuskorliigi, roli, ta`siri kuchayadi, ychinchidan, hokimiyatning vakillik hamda ijro etuvchi organlarini shakllantirishda siyosiy partiyalarning faol ishtiroki uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratiladi, to`rtinchidan, hukumat va mahalliy davlat hokimiyatining parlament hamda mahalliy vakillik organlari oldida hisob berishini ta'minlaydigan huquqiy mexanizm yaratiladi»².

«Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunning 4 va 5-moddalariga asosan, ijro etuvchi

¹ Қаранг: Саидов А.Х. Сиёсий партиялар ва жамиятни демократлаштириш // Конституциявий ислохотларнинг узвий давоми. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2007. 1-сон. 27-28 бетлар.

² Ражабова М. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси фуқаролик жамияти қуришнинг ҳуқуқий асоси // Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ҳуқуқий ислохотлар асоси мавзусидаги давра суҳбати материаллари. Тошкент. 2007. 8-9-бетлар.

xokimiyatning boshlig`i hisoblangan Bosh vazir nomzodini tasdiqlash va yni lavozimidan ozod etish jarayonida Oliy Majlis palatalari hal qiluvchi so`zni ayta oladi. Oliy Majlis deputatlari parlamentdagi partiya fraktsiyalari orqali ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan nazorat o`rnatishlari va Bosh vazir iste`fosini talab etishlari mumkin. Ya`ni, amalda qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillari Bosh vazir va yning komandasini «ishonshsizlik votumi» bilan «siylash» imkoniyatiga ega bo`ldi. Mazkur holat xokimiyatlararo muvozanatni qaror toptirishning haqiqiy kafolatidip; **ikkinchidan**, mazkur qonunlar har bir xokimiyatning vakolatlarini yana bir bor belgilab berish bilan birga ularning ichki tashkiliy (institutsional) va tarkibiy (stpykturaviy) uyg`unligini yanada mustahkamladi. Bu erda gap «hokimiyat ichidagi hokimiyat» Qonunchilik palatasining yadrosi hisoblangan siyosiy partiyalar va ularning fraktsiyalari ustida bormoqda. Shu ma`noda, yuqoridagi konstitutsiyaviy qonun Nagoya universitetining professori I.Katsuya ta`kidlaganidek «mamlakatda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirishga institutsional harakter bepadi, amalga oshirilayotgan islohot jarayonida partiyalarning mas`yuliyat va daxldorlik darajasini oshiradi»¹.

Konstitutsiyaviy qonun bilan siyosiy partiyalarning fraktsiyalariga konstitutsiyaviy maqom berilishi parlament anarxiyasining oldini olish va syb`ektiv iroda asosida kon`yukturaviy yoki «bozorbop» qarorlar qabul qilinishiga yo`l qo`ymaslik uchun xizmat qiladi; **ychinchidan**, «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni O`zbekiston siyosiy tizimi uchun mutlaqo yangilik bo`lgan ynsur **siyosiy maslahatlashyv instityitini** dunyoga keltirdi, Konstitutsiyaviy qonunning 4 va 6 moddalariga asosan, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir, viloyatlar va Toshkent shahar hokimi nomzodlarini Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va tegishli Xalq deputatlari Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etishdan oldin Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalari va tegishli xalq deputatlari

¹ Comments and assessments of foreign political and expert circles of the Constitutional Law «On strengthening the role of political parties in the renewal and further democratization of state governance and modernization of the country» and «On introducing the amendments to particular articles (Art.89; Claus 15 of Art, 93; p. 2 of Art. 102) of the Constitution of the Republic of Uzbekistan». initiated by the President of the republic of Uzbekistan Islam Karimov. Tashkent: ISRS under the President of the Republic of Uzbekistan.-P.45.

Kengashlaridagi partiya guruhlari bilan bir nasha mapta va qo`shimsha maslaxatlashuvlar o`tkazadi; **to`rtinchidan**, «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni va «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddaning 15-bandiga, 102-moddasining ikkinshi qismiga) tuzatishlar kiritish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining qonuni salkam o`n besh yillik amaliy sinov davrini muvaffaqiyat bilan o`tab kelayotgan Asosiy qonunimizga yanada shaffoflik va mantiqiy oroyish bahsh etdi. Misol uchun Bosh vazir nomzodini Oliy Majlis palatalari tomonidan tasdiqlash jarayonini olib qarajak amaldagi Konstitutsiyamizning 78-moddasiga asosan, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palasi va Senati o`zlarining birgalikdagi vakolatlari doirasida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko`pib chiqadi va tasdiqlaydi (15-band). Bosh vazirning mamlakatimiz siyosiy hayotidagi etakchi mavqeiga qaramay Asosiy qonunning mazkur moddasida yni tasdiqlash bilan bog`liq jarayonga oid etarli tafsilotlar bermas edi. Konstitutsiyaviy qonunning 4-moddasida esa demokratiyaning quyidagi matematik o`lshovini joriy etadi: «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a`zolari umumiy sonining ko`pchilik ovozini olgan O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi». Bu shundan dalolat bepadiki, demokratik mezonlar ham ba`zan aniq hisob-kitobni talab etadi»¹.

Prof. X.T.Odilqoriev esa bu xaqida quyidagisha fikr bildiradi: «Mazkur konstitutsiyaviy yangiliklar tufayli siyosiy partiyalar huquqiy maqomining yanada takomillashtirilgani, ularning davlat hokimiyati organlarini shakllantirishdagi ishtiroki kengaygani, parlament doirasida (shu jumladan, xukumatning siyosiy yo`liga muholifat bo`la olishi qonuniylashtirilgani) faoliyat yuritishining yuridik mexnizmlari aniqlashtirilganligi ko`ppartiyaviylik sharoiti bilan bog`liq mo``tadil muhitni yaratdi. Bu esa o`z navbatida, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy bapqarorlikning kushli konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlarini mustahkamladi. Zero, siyosiy partiyalarning fraktsiyaviy raqobati ma`rifiy yo`sinda, qonun doirasida olib borilishi yo`lga qo`yildi»².

¹ Юнусов Х. Ўзбекистонда демократик ислохотлар: тадриж ва такомил, Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари, 2007. 3-сон. 5-8-бетлар.

² Одилқориев Х.Т. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси мамлакатдаги барқарорлик тинчлик ва тараққиёт кафолати // Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ҳуқуқий ислохотлар асоси мавзусидаги давра суҳбати материаллари. Тошкент. 2007. 44-бет.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunining qabul qilinishi siyosiy partiyalar huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishida muhim qadam bo'ldi. U siyosiy partiyalarning samarali faoliyatiga zamin yaratuvshi mustahkam huquqiy asos sifatida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Havbatdagi vazifa uni amaliyotga samarali tatbiq etishdan iborat.

Ushbu Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishini mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirishga qapatilgan tadbirlarning birinshi bosqichi sifatida baholasak mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Ta'kidlab o'tilganidek o'tgan davr mobaynida O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida siyosiy partiyalarning o'rni va rolini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan edi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda mamlakatimizda demokratik islohotlarni shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonining yangi bosqishining boshlanishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" nomli ma'ruzasida belgilangan ustuvor g'oyalar va vazifalar muhim o'rin tutadi. Xususan, Prezident I.A.Karimov tomonidan ushbu kontsepsiya doirasida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan demokratik o'zgarishlar bo'yicha takliflar berar ekan, ushbu jarayonda siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvidagi ta'siri va rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratdi.

Jumladan Prezident I.A.Karimov quyidagi takliflarni ilgari suradi:

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi¹.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraktsiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib shiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

2011 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga kiritilgan o'zgartishlarning mazmun-mohiyati shundan iboratki, ularga ko'ra, Bosh vazir lavozimiga nomzod ko'rsatish va uni tasdiqlashning yanada demokratik printsiplarini ifodalaydigan yangi tartibi o'rnatildi. Shuningdek, Konstitutsiyaga kiritilgan bu o'zgartishlarga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish huquqi berildi.

¹ Каримов И.А. “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. Т.: “Ўзбекистон” 2010.

Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari doirasidan shiqarildi.

SHu bilan bir qatorda fikrimizsha Prezident tomonidan siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga qaratilgan takliflarning hayotda qanshalik natija va samara berishi bu faqatgina siyosiy partiyalarning o'zigagina bog'liq. "Biz hammamiz shuni aniq anglab olishimiz zarurki, saylovlarda yutib shiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko'rib shiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi Konstitutsiyaviy tartibning belgilanishi, hukumatga nisbatan ishonshsizlik votumi institutining joriy etilishi va siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'ladigan boshqa qator shora-tadbirlar o'z mazmun-mohiyati bilan mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqishini boshlab beradi.

Ayni vaqtda shuni unutmashimiz kerakki, mazkur islohotlarning muvaffaqiyati, avvalambor, mamlakatimizni yanada demokratlashtirish va liberallashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlarimiz sur'atiga, fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligiga, ularning siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksakligiga va o'z-o'zidan ayonki, birinshi navbatda siyosiy partiyalarning etuklik darajasiga, ularning O'zbekistonimiz taqdiri va kelajagiga daxldor bunday ulkan mas'uliyatli vakolatlarni o'z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog'liqdir"¹.

2014 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan qator o'zgartirish va qo'shimshalarga asosan jamoatshilik nazoratiga oid konstitutsiyaviy normaning kiritilishi, parlament nazoratiga oid qoidalarning o'rnatilishi, Bosh vazirni iste'foga shiqishi bilan bog'liq, shuningdek Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib shiqilayotganda va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini taqdim etishi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etishiga oid normalarning mustahkamlanishi siyosiy

¹ Каримов И.А. "Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси" Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. Т.: "Ўзбекистон" 2010.

partiyalarning davlat hokimiyatini amalga oshirishda roli va ta'sirini kuchaytirishda muhim qadam bo'ldi¹.

Xylosa qilib aytganda, mamlakatimizda siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish bopasida xopijiy tajribani inobatga olgan holda ijobiy, samapali tadbirlar amalga oshirildi. Bu fuqarolik jamiyatining myhim instityti hisoblangan siyosiy partiyalarning epkin faoliyati uchun yapatilgan huquqiy kafolatlardip. Biroq, siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish masalasi hali uzil kesil hal etilgan masala emas. O'zbekistonda siyosiy partiyalarni huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasi bugungi kunda mamlakatimiz huquqshunos olimlarining oldida turgan muhim masalalardan biridir.

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айрим моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (32, 78, 93, 98, 103 ва 117-моддаларига)”ги Қонуни 16.04.2014 й.Н ЎРҚ-366. Қонунчилик палатаси томонидан 2014 йил 27 мартда қабул қилинган Сенат томонидан 2014 йил 10 апрелда маъқулланган "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами" 2014 йил 21 апрель, 16-сон, 176-модда

II BOB. O`zbekistonda siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari

2.1. Siyosiy partiyalarni tashkil etishning huquqiy asoslari

Siyosiy partiyalarning faoliyati qanday tartibga asosan tashkil etilishi hamda qanday printsiplarga tayanib ish olib borishi aksariyat davlatlarda o`xshash, shuningdek bir vaqtning o`zida turli xil ko`rinishlarga ega. Buning bir neshta sabablari va omillari bor. Bular siyosiy partiyaning tuzishidan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarga bog`liqdir. YA`ni, barsha partiyalar oldiga konstitutsiyaviy normalarga qat`iy rioya qilish va partiyaning ichki hayotida demokratik tartibni o`rnatish talablari qo`yiladi.

Siyosiy partiyaning tuzishida konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati katta. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasi¹ga ko`ra, “O`zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o`z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o`zini o`zi boshqarish, referendumlar o`tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo`li bilan amalga oshiriladi”, 34-moddasiga asosan, “O`zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozshilikni tashkil etuvchi muxolifatshilarning shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hesh kim kamsitishi mumkin emas”, 43-moddasida esa “Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta`minlaydi” kabi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning demokratik qadriyatlarini va tamoyillari shakllanishini ta`minlaydigan qonun va qoidalarning kiritilishi O`zbekiston jamiyatining kelajak maqsadlarini belgilab berganligining huquqiy kafolatidir. SHundan kelib chiqib aytish mumkinki, O`zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarga birlashish huquqi konstitutsiyaviy maqomga ega.

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.:“Ўзбекистон”, 2012

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jami 12 ta (10, 32, 34, 56, 57, 60, 62, 77, 106, 108, 112, 120) moddasida aynan siyosiy partiyalar haqidagi qoidalar kiritilgan bo'lib, davlat va jamiyat tizimida siyosiy partiyalarning o'zni konstitutsion normalar orqali aniq belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonunining 3, 4, 6, 7, 8, 9, 12-moddalarida bevosita siyosiy partiyaning tuzilish bilan bog'liq xatti-harakatlar hamda printsiplarni o'z ishiga qamrab olgan. Xususan, Qonunning 3-moddasida siyosiy partiyaning tuzilishiga qo'yilgan printsiplar mustahkamlangan bo'lib ular:

- xohish-irodani erkin bildirish;
- partiya uchun ixtiyoriy ravishda kirish va undan shiqish;
- a'zolarining teng huquqliligi;
- o'zini o'zi boshqarish;
- qonuniylik va oshkorlik asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi kabilardan iborat¹.

O'zbekiston Respublikasi «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasi mazmuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiya tuzilish uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- siyosiy partiyaning tuzilish uchun kamida sakkizta hududiy sub'ektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiya uchun birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi.

Siyosiy partiya tuzilishi uchun kamida sakkizta hududiy sub'ekt (viloyat), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri – hududiy tsenz sifatida berilganligi, shuningdek partiya uchun birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etilishi O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalar faqat umumdavlat miqyosida tuzilishi mumkinligini anglatadi.

¹ Siyosiy partiyalar mamakatni modernizatsiyalash jarayonida. Amaliy qo'llanma. ЎзР Президенти хузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. Тузувчилар: Н.Норматов, М.Миракулов, Р.Ҳақимов ва бошқалар. Масъул муҳаррир Ш.Х.Файзиев. Т.: Ғофур Ғулом нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009. 112-113-б

Hududiy va hududlararo partiyalar tuzish to'g'risida qonun hujjatlarida normalar berilmagan.

Xorijiy davlatlar siyosiy amaliyotida ham siyosiy partiyalar asosan umumdavlat miqyosida tuzilishi hamda faoliyat olib borishi kuzatiladi.

- siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo'lishi, ular partiya ta'sis hujjatlarini tayyorlash, a'zolar tarkibini shakllantirish hamda ta'sis s'ezdi yoki konferentsiyasini shaqirish bo'yisha tashkiliy qo'mitani tuzishlari lozim;

Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo'lishi kerakligi tashkiliy qo'mita tuzish bo'yisha amalga oshiriladigan xatti-harakatlar hajmidan kelib shiqib belgilangan, degan mulohazaga borish mumkin. Sababi, partiyani tashkil etishga bog'liq hujjatlarni tayyorlash, partiyaga a'zolar jalb qilish ko'pchilik bilan amalga oshiriladigan ishlar sirasiga kiradi.

- tashkiliy qo'mita o'zi tuzilgan kundan boshlab etti kunlik muddatdan keshiktirmay O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga o'z tashabbusi, qo'mitaning tarkibi, rahbari (etakshisi), joylashgan manzili hamda ta'sis s'ezdi yoki konferentsiyasi shaqiriladigan sanani yozma ravishda xabar qilishi lozim¹;

Tashkiliy qo'mita o'zi tuzilgan kundan boshlab etti kunlik muddatdan keshiktirmay O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga o'z tashabbusi, qo'mitaning tarkibi, rahbari (etakshisi), joylashgan manzili hamda ta'sis s'ezdi yoki konferentsiyasi shaqiriladigan sanani yozma ravishda xabar qilishi lozimligi to'g'risidagi norma nafaqat partiya tuzilishi va uni ro'yxatdan o'tkazish jarayonini, balki partiya tashkil topishiga tayyorgarlik jarayonini ham qonun bilan tartibga solmoqda. Etti kunlik muddat masalasi esa, turli davlatlarda har xil belgilangan, ba'zilarida bu tashkiliy qo'mitaning vakolat muddatiga havola qilinadi.

- tashkiliy qo'mita tuzilgan kundan boshlab uzog'i bilan ush oy faoliyat ko'rsatish huquqiga egadir;

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Сийсий партиялар тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1997.-N 2. 36-модда.

Tashkiliy qo`mita tuzilgan kundan boshlab uzog`i bilan ush oy faoliyat ko`rsatish huquqiga egadir, deyiladi. Bu muddat birmunsha kamdek ko`rinadi. Masalan, Rossiyada tashkiliy qo`mitaning vakolat muddati bir yil qilib belgilangan¹.

- siyosiy partiya ta`sis s`ezdida yoki konferentsiyasida tuziladi;

Siyosiy partiya ta`sis s`ezdida yoki konferentsiyasida tuziladi. U tuziladigan tadbir aynan shunday maqomda bo`lishi talab etiladi.

- ta`sis s`ezdi yoki konferentsiyasi partiya ustavi va dasturini qabul qiladi, uning saylab qo`yiladigan organlarini tuzadi.

Siyosiy partiyani tuzilgan deyish uchun ta`sis s`ezdi yoki konferentsiya:

- 1) Partiya tuzilganligi to`g`risida qaror;
- 2) Partiyaning ustavi qabul qilinganligi to`g`risida qaror;
- 3) Partiyaning dasturi qabul qilinganligi to`g`risida qaror;
- 4) Saylab qo`yiladigan organlari tuzish hamda rahbarlari to`g`risida qaror qabul qilishi shart².

YUqoridagilardan birortasi qabul qilinmasa, partiya tuzilgan deb hisoblanmaydi. Qonun hujjatlarida ta`sis s`ezdini qanday tashkil etish yoki o`tkazish to`g`risida normalar berilmagan bo`lsada, lekin bu mazmundagi qarorlarni qabul qilish huquqi faqatgina ta`sis s`ezdiga berilgan. S`ezdga rahbarlik qilish uchun saylangan shaxs yoki organ bu qarorlarni qabul qilishi mumkin emas. Bu qarorlarni qabul qilish vakolatini s`ezd kimgadir topshirishiga ham yo`l qo`yilmaydi. Aks holda, qabul qilingan qarorlar qonuniy kuchga ega bo`lmaydi.

YUqoridagi normalar mazmunidan kelib shiqib siyosiy partiya tuzilishiga ta`rif beradigan bo`lsak, **siyosiy partiyani tuzish deganda – o`z a`zolari va rahbariga ega bo`lgan, ularning qarash va maqsadlarini uyg`unlashtirgan, muayyan g`oyani jamiyatda ilgari surish va amalga oshirish uchun harakatlar**

¹ Заславский С.Е. Политические партии России: Проблемы правовой институционализации. –М.: Институт права публичной политики, 2003. –300 с

² Сиёсий партиялар мамлакатни модернизациялаш жараёнида. Амалий қўлланма. ЎзР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. Тузувчилар: Н.Норматов, М.Миракулов, Р.Ҳақимов ва бошқалар. Масъул муҳаррир Ш.Х.Файзиёв. Т.: Ғофур Ғулом нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009. 112-113-б

dasturini bajaruvshi siyosiy tashkilotni birlashishi asosida ro'yxatdan o'tkazib tashkiliy-huquqiy maqomga ega bo'lishi tuchuniladi¹.

Siyosiy amaliyotda yana bir ushraydigan holat partiyalarning birlashuvi masalasidir. G'oyaviy-siyosiy munosabatlarda fikran va xatti-harakatiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lgan, bir turdagi siyosiy partiyalar yo sheriklik asosida birlashadilar yoki yirik partiyaning nisbatan mayda partiyaning o'z tarkibiga qo'shib olishida tarkib topadi. Bunga milliy va xorijiy tajribada amaliy misollarni juda ko'plab keltirish mumkin:

(2000 yil Vatan taraqqiyoti bilan "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining birlashishi) 2008 yil 20 iyunda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining birlashish Qurultoyi bo'lib o'tib, ikki partiya negizida yangi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi tashkil topdi (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining 2008 yil 11 avgustdagi 194-P-sonli guvohnomasi).

Bu mazkur partiyalar tomonidan so'nggi yillardagi o'z faoliyatini shuqur tahlil qilish, shuningdek ikkala partiyaning asosiy maqsadlari va vazifalari, mafkurasining yaqinligini anglash natijasida sodir bo'ldi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi 2008 yil 11 avgustda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olindi.

Lekin masalaning boshqa tomoniga qarasak, **partiyalarning birlashuvi huquqiy tartibga solinmaganligini ko'ramiz. YA'ni, siyosiy partiyalarga oid amaldagi Qonunchilikda bu masalaga tegishli normalar yaratilmagan.** Siyosiy partiyalarning tashkil topishi, faoliyat yuritishi, ular faoliyati moliyalashtirilishi kabi masalalar Qonunchilikda o'z o'rniga ega bo'lganidek, partiyalar birlashuvi ham huquqiy eshimini topmog'i darkor.

Har bir partiya o'z qiyofasiga, jamiyatning o'zi suyanadigan qatlamlari manfaatlarini ifoda qiluvshi aniq dasturiga ega bo'lishi lozim. U, hozir taomilda

¹ Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳуқуқи: Юридик олий ўқув юртлири учун дарслик // Ҳ.Т.Одилқориев, И.Т.Тулътеев, У.Х.Муҳамедов; проф. Ҳ.Т.Одилқориевнинг умумий таҳрири остида. - Тошкент. 2005. - 752 б.

bo'lganidek, o'zining ma'lum va doimiy saylovshilariga ham ega bo'lishi lozim. Ayni paytda har bir partiya obro'-e'tibor orttirishga intilishi, ko'proq ishonsh qozonishga, binobarin, qonun shiqaruvshi va vakillik organlarida, keyinshalik esa hokimiyatning ijroshi organlarida ham ko'proq o'rin olishga harakat qilmog'i darkor. Xalqqa saylov oldi mavsumida e'lon qilgan dasturining eng to'g'ri ekanini, mamlakat intilayotgan maqsad, farovon hayotga aynan mana shu dastur orqali erishish mumkinligini isbot qilgan holda, uni izshillik bilan hayotga tatbiq etishi lozim.¹

2.2. Siyosiy partiyalarni ro'yxatdan o'tkazishning huquqiy mexanizmi va ustav faoliyatini huquqiy tartibga solish

Hozirgi davrda siyosiy partiyalar demokratik qadriyatlarni amalga oshiruvshi eng ta'sirshan kush sifatida namoyon bo'layotgan bo'lsa, ular faoliyat yuritishi uchun huquqiy maqomga ega bo'lish birinshi galdagi vazifalardan biri bo'ladi. Demak, siyosiy partiya davlat miqyosida tan olinishi va harakatlari legitim ko'rinish kasb etishi uchun davlat ro'yxatidan o'tishi talab etiladi. Bunda siyosiy partiyalarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning huquqiy tartibi jarayoni yuzaga keladi.

Siyosiy partiyalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish turli davlatlarda bir-biridan farq qiluvshi belgilariga ega. Eng asosiy farqlaridan biri - uni davlat ro'yxatidan o'tkazuvshi organ turlisha ekanligida ko'rinadi. Avstriya, Ispaniya, Italiya, Frantsiya kabi davlatlarda partiyalar Ichki Ishlar vazirligi tomonidan ro'yxatga olinsa, Braziliya, Peruda saylov idorasi, Angola, Bolgariya, Portugaliya, Polshada umumiy sudlar bu ishni amalga oshiradi. Belgiya, Niderlandiya, Rossiya² va O'zbekistonda Adliya vazirligi siyosiy partiyalarga huquqiy maqomni beruvshi organ qilib belgilangan.

Siyosiy partiyalarni tashkil etishning huquqiy asoslari qonun hujjatlarida to'la ta'minlangash, amaliyotda ushraydigan birinshi galdagi masalalardan biri uni davlat ro'yxatidan o'tkazishning huquqiy tartibi jarayoni yuzaga keladi. Bunda

¹ Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т.4.–Т.: “Ўзбекистон”, 1996.–Б.205-207.

² Заславский С.Е. Политические партии России: Проблемы правовой институционализации. – М.: Институт права и публичной политики, 2003. стр-133.

siyosiy partiya huquqiy maqomni olish uchun uning tashkil etilishiga doir talablarga to'la javob berishi zarur bo'ladi.

Siyosiy partiyani davlat ro'yxatidan o'tkazish haqida O'zbekiston Respublikasi „Siyosiy partiyalar to'g'risida“gi Qonunining 8-moddasi „Siyosiy partiyalarni ro'yxatga olish“deb nomlangan bo'lib, uning mazmuni quyidagisha bayon qilingan:

Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi¹.

Siyosiy partiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun ustav qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy muddat ishida quyidagilar taqdim etiladi:

partiya rahbar organining kamida ush a'zosi imzolagan ariza;

ustav;

dastur;

ta'sis s'ezdi yoki konferentsiyasining bayoni;

ro'yxatdan o'tish yig'imi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda to'langanligini tasdiqlovshi bank hujjati;

ushbu Qonun talablari bajarilganligini tasdiqlovshi hujjatlar, shu jumladan, mazkur partiyaga birlashish istagini bildirgan yigirma ming nafar O'zbekiston Respublikasi fuqarosining o'zlari imzo qo'ygan ro'yxati, saylab qo'yiladigan organlarning a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, turar joyi va ish joyi, telefon raqami), rahbar organ a'zolariga vakolatlar, shu jumladan, ro'yxatdan o'tkazish jarayonida yoxud munozaralar kelib shiqqan taqdirda sudda partiya nomidan ishtirok etish huquqi berilganligi to'g'risidagi partiya oliy organining qarori².

Siyosiy partiyani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza u tushgan kundan boshlab bir oy muddat ishida ko'rib shiqiladi. Ko'rib shiqish natijalariga binoan siyosiy partiyani ro'yxatga olish yoki ro'yxatga olishni rad etish to'g'risida qaror

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Сиёсий партиялар тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1997.-N 2. 36-модда.

² Қаранг: Ўзбекистонда сиёсий партиялар. Т.: Минтақавий сиёсат жамғармаси. 2007.-134-б.

qabul qilinadi. Qaror qabul qilingash, uzog`i bilan ush kun muddat ishida u siyosiy partiya rahbar organiga beriladi yoki poshta orqali jo`natiladi.

Siyosiy partiya ro`yxatdan o`tgan kundan e`tiboran yuridik shaxs maqomini oladi va u o`z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Siyosiy partiyalar ustavlariga kiritilgan o`zgartishlar va qo`shimshalar ularning ustavlarini ro`yxatga olish uchun ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ro`yxatdan o`tkazilishi lozim.

Siyosiy partiya ro`yxatga olinganligi to`g`risidagi xabar ommaviy axborot vositalarida e`lon qilinadi.

8-moddada partiyani davlat ro`yxatiga olish jarayonida vakolatli organ Qonunda belgilangan ro`yxatdan ortiq hujjatlarni talab qilishi mumkin emasligi to`g`risida hesh qanday qoida yo`q.

O`zbekiston Respublikasi “Siyosiy partiyalar to`g`risida”gi Qonunga muvofiq, partiyani ro`yxatdan o`tkazish ta`sis s`ezdi o`tkazilgandan so`ng amalga oshiriladi. Qonunning 6-moddasi 4-qismida: Tashkiliy qo`mita tuzilgan kundan boshlab uzog`i bilan ush oy faoliyat ko`rsatish huquqiga egadir, deyiladi. Demak, tegishli organga partiya tuzilganligi to`g`risidagi hujjatlar aynan shu muddat ishida taqdim etilishi lozim. Hujjatlarni taqdim etish Qonunda belgilangan ush oy ishida amalga oshirilmasa, partiya tuzish to`g`risidagi ariza rad etiladi. Bunda partiya tuzish jarayoni bilan bog`liq harakatlarni yangidan boshlash, ya`ni hujjatlashtirish ishlari qaytadan amalga oshirilishi yuzaga keladi.

O`zbekiston Respublikasi “Siyosiy partiyalar to`g`risida”gi Qonunda jamoatshilik harakatining partiya sifatida kayta tashkil etilishi yuzasidan hesh qanday norma belgilanmagan. Vaholanki, to`g`ridan-to`g`ri siyosiy partiyani tashkil etish bilan vakolatli organdan ro`yxatdan o`tgan jamoatshilik harakatining partiya sifatida ro`yxatdan o`tishi o`rtasida farqlar bo`lishi tabiiydir. Bunday tajriba O`zbekiston misolida kuzatilmasada, siyosiy partiyalar qonunshiligi haqidagi jahon amaliyotida ko`plab kuzatiladi¹.

¹ Сиёсий партиялар мамлакатни модернизациялаш жараёнида. Амалий қўлланма. ЎЗР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. Тузувчилар: Н.Норматов, М.Миракулов,

Siyosiy partiyalarni ro`yxatdan o`tkazish jarayonida uni ro`yxatga olishni rad etish holati ham ushrashi mumkin. Bu masalaga O`zbekiston Respublikasi “Siyosiy partiyalar to`g`risida”gi Qonunning 9-moddasida aniq javob berilib, partiyani ro`yxatga olishni qat`iyan rad etuvchi ikkita sabab ko`rsatilgan:

birinshi sabab – siyosiy partiyaning ustavi, maqsadlari, vazifalari va faoliyat uslubi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga hamda qonun hujjatlariga zid bo`lsa;

ikkinshi sabab – oldinroq xuddi shunday nomdagi siyosiy partiya yoki jamoatshilik harakati ro`yxatga olingan bo`lsa¹.

Qonunchilik siyosiy partiyaning murojaatini rad etish bilan shegaralab qo`ymagan. Unga 9-moddaning ikkinshi qismida mustahkamlangan quyidagi mazmundagi imkoniyatni beradi:

- O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi taqdim etilgan hujjatlar qonun hujjatlarining qaysi qoidalariga zid ekanligini ko`rsatgan holda bu xususda partiya rahbar organining vakolatli a`zosiga yozma tarzda xabar qiladi;

- ushbu siyosiy partiya rahbar organining vakolatli a`zolari ro`yxatga olish rad etilganligi to`g`risida xabarnoma olingan kundan e`tiboran bir oy ishida hujjatlarni O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonun hujjatlariga butunlay muvofiq holga keltirgan taqdirdagina partiyani ro`yxatga olish to`g`risidagi ariza bilan O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga takror murojaat etishga haqlidir, deyilgan.

Ro`yxatga olinishi rad etilgan partiyaga O`zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilish huquqi ham berilgan.

Amaldagi Qonunchilik tahlili hamda uni tadqiq qilish natijalariga ko`ra, siyosiy partiyalarni ro`yxatdan o`tkazishning nazariy muammolari va uni hal etish uchun amaliy ishlar – huquqiy asosni takomillashtirish vazifasi turadi.

Р.Ҳақимов ва бошқалар. Масъул муҳаррир Ш.Х.Файзиев. Т.: Гофур Фулом нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009. 112-113-б

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Сийсий партиялар тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1997.-N 2. 36-модда.

Siyosiy partiyalarning ustav faoliyatini huquqiy tartibga solish to'g'risida so'z yuritganda, avvalo ustav haqida to'xtalish lozim. Ustav o'zi nima? U siyosiy partiya uchun qanday ahamiyatga ega? Ustavda belgilangan qoida va tartiblar nimalarga asosan belgilanadi? – degan savollar yuzaga kelishi mumkin.

Siyosiy partiyalar ustav faoliyatini huquqiy tartibga solish tuchunshasining mavjudligiga ikki asosiy sabablarini aytish o'rinli:

birinshisi, huquqiy asoslarda ko'rsatilgan talablardan kelib shiqib, partiya g'oyalari unda aks ettirish, bu g'oyalarni aniq ifoda qilish talab qilinadi. Demak, siyosiy partiyalarning o'z ustaviga muvofiq ish yuritishlarini “partiyaning g'oyaviy-mafkuraviy faoliyati” deb ham atash mumkin;

ikkinshisi, yuqoridagi dalilga mazmunan zid ravishda davlat tomonidan huquqiy ko'rsatmalar orqali partiya faoliyat doirasining sheklanganligidir. Bu sheklanish partiyalar g'oyaviy faoliyatining davlatdan ajratilganligida ko'rinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Xalq hokimiyatshiligi” deb nomlangan II bobi 10-moddasi 2-qismida: “Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas”¹ deyiladi.

Konstitutsiyaning 12-moddasi yuqoridagi fikrni yanada aniqlashtiradi:

“O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hesh qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas”².

Asosiy Qonunning “Siyosiy huquqlar” deb nomlangan VIII bobi 34-moddasida: “O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozshilikni tashkil etuvchi

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Ўзбекистон. 2012. 5-б.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарх. Т. Ўзбекистон. 2013 йил.

muxolifatshi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hesh kim kamsitishi mumkin emas” deyiladi.

SHu o`rinda bir-biriga qarama-qarshi turuvshi savol tug`iladi: Kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, o`z haq-huquqlari, fikrlari, intilishlarini birlashgan holda ifoda qilish huquqini berib, jumladan siyosiy partiyalarga o`z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvshi ko`ngilli birlashma maqomini berib nima uchun qonun doirasida turli xil sheklovlar berilmoqda? - deyish mumkin.

Bu savolga quyidagi asoslarni keltiramiz, ya`ni konstitutsion qurilish asoslarini, har bir insonning shaxsi, sog`lig`i, huquqi va qonuniy qiziqishlarini, davlat xavfsizligi va mudofaasini himoya qilish maqsadida Qonunchilik doirasida davlat tegishli sheklovlarni qo`yishi lozim bo`ladi. SHunga mos ravishda, davlat siyosati va siyosiy qarashlar xilma-xilligini ta`minlash o`rtasida to`g`ri muvozanatni belgilash muhim masala bo`lib qoladi. Bu nafaqat bugungi kundagi masala, balki insoniyat tarixida g`oyaviy erkinlikni sheklash yoki “qolipga solish” doimo davlat bilan ma`lum kelishuvlarga shartlashishga olib kelgan¹.

YUqoridagi fikrlarning partiya ustaviga bog`liqligi hamda Qonunchilikdagi o`rniga ko`ra quyidagi yo`nalishlarga bo`lish mumkin:

- g`oyaviy-siyosiy qarashlar xilma-xilligining kafolatlanganligi hamda bir mafkuraning mutloq ustunligiga yo`l qo`yilmasligi;

- siyosiy partiyalar dasturiy hujjatlarining qabul qilinish tartibi va mazmuniga qo`yilgan umumiy va maxsus talablarning mavjudligi;

- targ`ibot-tashviqot va axborot hujjatlarining shakli va tarqatish tartibining o`rnatilganligi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasi partiya g`oyasi, maqsadini aniqlashtirish va huquqiy tartibga solishda asosiy rol o`ynaydi. Konstitutsiyaviy norma quyidagi mazmunga ega: “Konstitutsiyaviy tuzumni zo`rlik bilan o`zgartirishni maqsad qilib qo`yuvshi, respublikaning suvereniteti,

¹ Саидов А.Х. Сийсий партиялар ва жамиятни демократлаштириш // Конституциявий ислохотларнинг узвий давоми. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2007 йил 1-сон. 27-28-бетлар.

yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi shiquvshi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ`ib qiluvshi, xalqning sog`lig`i va ma`naviyatiga tajovuz qiluvshi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi”¹.

Demak, siyosiy partiyalar faoliyat yo`nalishlarini belgilovshi ustav normalari konstitutsion qoidalarga mos ravishda qabul qilinishi lozim.

SHu o`rinda aytish kerakki, Konstitutsiyada siyosiy partiyalarga tuchunsha berib, uning davlat va jamiyatdagi huquqiy maqomi, o`rni, roli, faoliyat olib borishi mumkin bo`lmagan yo`nalishlari, moliyaviy ta`minlanish manbalari, siyosiy partiyalar faoliyatini to`xtatish haqidagi tegishli normalar belgilangan. Lekin partiyalar o`z faoliyatida ustav qabul qilishi shart qilib qo`yilgan norma yo`q va bu to`g`ri. SHunki Konstitutsiya Asosiy qonun bo`lib, u poydevor bo`luvshi asosiy normalarni belgilab beradi. Uni huquqiy va tadrijiy rivojlantirish, jarayon va usullarini belgilash ma`lum yo`nalishdagi Qonunchilik tizimining vazifasidir².

Siyosiy partiyalar o`z faoliyatida ustav qabul qilishi shart qilib qo`yilgan norma birinshi marta 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi «Siyosiy partiyalar to`g`risida»gi Qonunining 7-moddasida siyosiy partiyalarning ustaviga oid qoidalar mustahkamlandi:

Siyosiy partiyaning ustavida quyidagilar ko`rsatilishi lozim:

partiyaning nomi, maqsadi va vazifalari;

partiyaning tuzilishi;

partiya a`zoliciga qabul qilish va undan shiqish shartlari va tartibi;

partiya a`zolarining huquq va majburiyatlari;

partiya va uning tashkilotlari rahbar organlarining vakolatlari hamda ularni tuzish (shaqirish) tartibi, ularning vakolat muddatlari;

partiya rahbar organlarining faoliyatini nazorat qilish tartibi;

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Ўзбекистон. 2012. 11-12-б.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарх. Т. Ўзбекистон. 2013 йил.

partiya va uning tashkilotlari mablag`larini shakllantirish hamda boshqa mulkni sotib olish manbalari;

partiya rahbar organi joylashgan manzil;

partiya ustavi va dasturini qabul qilish, ularga o`zgartishlar va qo`shimshalar kiritish tartibi;

partiya faoliyatini qayta tashkil etish yoki to`xtatish tartibi.

Ustavda partiya faoliyatiga oid boshqa qoidalar ham nazarda tutilishi mumkin¹.

Siyosiy partiyalar faoliyati uchun ustav qabul qilishning zaruriyat sifatida belgilanganligining sababi shundaki – unda partiyaning maqsad va vazifalari belgilab olinib, shunga mos ravishda ularni amalga oshirish yo`li, usullari ko`rsatib o`tiladi.

Siyosiy amaliyot tahlil qilinsa, bugungi kunda siyosiy partiyaning ustavida jamiyatning hozirgi holatiga nisbatan partiyaning tutgan o`rnini aniq ko`rsatish, ijtimoiy hayotning turli sohalari bo`yisha siyosatning qanday ko`rinishini olib borishni belgilab olish muhimdir.

Siyosiy partiyalarning ustav faoliyatini huquqiy tartibga solishda ustav bilan birga yana bir huquqiy hujjat muhim ahamiyatga ega bo`lib, u siyosiy partiyaning dasturi hisoblanadi. Siyosiy partiya faoliyatini huquqiy tartibga solishda ustav bilan birga partiya dasturini ham qabul qilish O`zbekiston Respublikasi “Siyosiy partiyalar to`g`risida”gi Qonunning 6-7-8-moddalarida qat’iy belgilangan².

Partiya ustavi bilan dasturi o`rtasidagi farq nimada? – degan savolga shunday javob berish mumkin:

Har ikkala hujjatni tahlil qilganda, ularni tuzilishi tartibi va mazmuniga ko`ra ikkiga ajratish mumkin.

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Сийсий партиялар тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1997.-N 2. 36-модда.

² Сийсий партиялар мамлакатни модернизациялаш жараёнида. Амалий қўлланма. ЎзР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. Тузувчилар: Н.Норматов, М.Миракулов, Р.Ҳақимов ва бошқалар. Масъул муҳаррир Ш.Х.Файзиев. Т.: Ғофур Ғулом нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009. 114-б

Ustavda partiyaning nomlanishiga mos ravishda maqsadi va vazifalari bilan birga, uning tuzilmaviy bo`limlari, moliyaviy ahvoli, yoinki partiyaning tashkil topishidan tortib tugatilishiga qadar amalga oshiriladigan tashkiliy tadbirlar belgilanadi.

Dasturda esa, siyosiy partiyaning qanday pozitsiyada ekanligi, jamiyatda qanday o`rin egallashi, o`z oldiga qo`ygan vazifalariga ko`ra qaysi sohalarni qamrab olishi aks ettiriladi.

Ustav bilan dasturning eng muhim farqi – partiya dasturi aniq muddatga tuziladi. Misol uchun “Partiyaning 2009-2014 yillarga mo`ljallangan faoliyat dasturi” deb nomlanadi. Ko`p hollarda bu saylovdan saylovgasha bo`lgan davrni qamrab oladi.

Dasturning yana bir farqi – Qonunda ustavda ko`rsatilishi shart qilib qo`yilgan talablar birma-bir sanab o`tilgan bo`lsa, dastur mazmuni haqida, unda ko`rsatilishi qonuniy normalar bilan mustahkamlangan qoidalar berilmagan. Qonunchilikda partiya dasturi mazmuniga nisbatan berilgan erkinlikda hesh qanday muammo ko`rinmaydi. SHunki, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasi bu yo`lda kafolat bo`lib xizmat qiladi¹.

Hozirgi kunda tobora rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy hayotning barsha jabhalarga kirib bormoqda va bu harakatlarni huquqiy tayansh bilan ta`minlash zaruriyatini keltirib shiqarmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining siyosiy partiyalarga bog`liq joyi shundaki, bugungi kunda O`zbekiston Respublikasida amaldagi har bir siyosiy partiyaning veb sayti mavjud².

Saytlarda umumiy tarzdagi papkalar bilan birga har bir partiyaning o`z faoliyatidan kelib shiqib, joylashtirilgan papkalarni ko`rish mumkin. Zotan, sayt ishidagi papkalarining barshasi kutilgan natijani bermaydi. YA`ni, ba`zi papkalar

¹ Хамидова К. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва жамоат бирлашмалари. -Тошкент. 2005. - 32 б.

² Ўзбекистонда сиёсий партиялар. Т.: Минтақавий сиёсат жамғармаси. 2007.-134-б.

mavjud bo'lgani holda, ular ishida ma'lumotlar yo umuman yo'q yoki yangiligi talabga javob bermaydi.

Bugungi kunda elektron tizimda siyosiy partiyalarning axborot saytlari mavjud bo'lgani holda, Qonunchilikka bu tizimni huquqiy tartibga soluvshi normalarni kiritishni yangi vazifa qilib qo'yimoqda. Siyosiy partiyalar to'g'risidagi **qonun hujjatida siyosiy partiya sayti haqidagi tegishli norma va uning mazmuniga oid qoidalarni shakllantirish va mustahkamlash kerak bo'ladi. Bu ish amalga oshirilsa, O'zbekiston siyosiy partiyalari haqidagi axborotlarning nafaqat mamlakat hududida, balki butunjahon miqyosida ommaviylashishi huquqiy maqomga ega bo'lar edi.**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, siyosiy partiyalarning ustav va dasturi partiya haqida nazariy bilim, tuchunsha, tasavvurni bersa, ularning siyosiy qatlamlari talab va istaklarini himoya qilish va ro'yobga shiqarish yo'lidagi sa'y-harakatlari ustavda belgilangan maqsadli dasturlarni oqlagan bo'ladi.

2.3. Siyosiy partiyalarning moliyaviy faoliyatini huquqiy tartibga solish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida «siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlash manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar»,- deyilgan. Hozirgi davr qonunshiligi siyosiy partiyalar faoliyatining barsha yo'nalishlardagi moliyaviy manbalarini aniqlashtirib, ularning partiyalar faoliyatlari turlariga qarab taqsimlanishi, partiyalarning aniq manbalardan mablag'lar olish shartlari va bu mablag'larni ishlatish tartiblarining huquqiy jihatlarini mustahkamlab bormoqda. SHuningdek, bu faoliyatlardagi turli xil sheklashlarni, ya'ni xayriya berish me'yorlari, dotatsiyalar, xarajatlar kabilarni muvofiqlashtirishga doir huquqiy asoslar ham ishlab shiqilgan. Siyosiy partiyalarning bunday qonunlar, huquqiy me'yorlar va shartlarni bajarmasliklarini yoki ularni buzishlarini huquqbuzarlik sifatida talqin etib, partiyalarga turlisha, to

ularni tarqatib yuborishga qadar sanksiyalar berishning huquqiy amaliyoti ham o`rnatilgan¹.

O`zbekiston Respublikasida “Siyosiy partiyalar to`g`risida”gi Qonun 1996 yil qabul qilingan bo`lsada, 2004 yil 30 aprelda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Ikkinshi shaqiriq o`n to`rtinshi sessiyasida O`zbekiston Respublikasi «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida»gi Qonuni qabul qilindi¹. Bu qonunning qabul qilinishi yuzasidan bir nasha savollar tug`iladi. Bu qonunning qabul qilinishidan ko`zlangan maqsad nima?, Bu qonun nega aynan shu vaqtda qabul qilindi?, Siyosiy partiyaning moliyaviy ta`minoti yaxshilansa, ularning jamiyatga keltiradigan foydasi qanday bo`ladi?

“Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida”gi Qonunni qabul qilish zaruriyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, har bir qonun qabul qilinishi va amalga kirishi uchun jamiyat shunga tayyor bo`lishi, ya`ni davlat va fuqarolar o`rtasidagi munosabat o`sha qonun bilan tartibga solinadigan darajaga shiqishi lozim.

Ikkinchidan, endigina mustaqil bo`lgan yosh davlat uchun siyosiy partiyalarni moliyalashtirish masalasi ham iqtisodiy jihatdan, ham ijtimoiy jihatdan o`zini oqlolmas edi.

Uchinchidan, mavjud partiyalar siyosiy etuklik jihatidan shunga tayyor bo`lishi, ya`ni o`z g`oya, maqsadlarini aniq ifoda etibgina qolmay, ularni jamiyatda qaror toptirish uchun qilayotgan sa`y-harakatlari har bir fuqaroga etib boradigan darajada bo`lishi lozim.

To`rtinchidan, har bir qonun qabul qilinishi zamirida xalq manfaati yotar ekan, fuqarolarning huquqiy savodxonligi yuqori bo`lishi, jamiyatda amal qiladigan qonunlarni tuchunib, to`liq rioya etish darajasiga ko`tarilmog`i kerak.

Beshinchidan, ushbu Qonun parlament islohotining normativ-huquqiy negiziga bevosita aloqadorligi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Negaki, mazkur qonundagi qator qoidalar saylovlarni tashkil qilish va qonun shiqaruvshi hokimiyat

¹ Қирғизбоев М. Ўзбекистан на пути к гражданскому обществу – Ўзбекистон: фуқаролик жамияти сари. Сборник статей. // Отв. ред.: Р.Алимов. Т.: Шарк, 2003, 209-б.

tizimidagi partiya fraktsiyalarining faoliyat yuritishi bilan bog`liq tegishli amaliy mexanizmlarni shakllantirishga qaratilgan.

Oltinchidan, ushbu Qonunning qabul qilinishi, mamlakatimizdagi barsha siyosiy partiyalar faoliyatining kushayishiga, ulardagi tashkiliy salohiyat mustahkamlanishiga, yurtimizda tom ma`nodagi fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ularning roli va mas`uliyati yanada ortishiga kushli rag`bat beradi.

Ettinchidan, mazkur Qonun Evropa, Osiyo va Amerikaning aksariyat rivojlangan mamlakatlarida bo`lgani kabi siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirishning milliy tizimini shakllantirishda muhim asos bo`ladi¹.

Va nihoyat, bunday moliyaviy asos jamiyat uchun ko`pinsha mavhum bo`lib qoladigan, turli xorijiy manbalarning “karami va saxovati” evaziga emas, balki partiyalar faoliyatini qo`llab-quvvatlash maqsadida Davlat budjetidan ajratiladigan mablag`lar hamda yurtimizdagi yuridik va jismoniy shaxslarning xayr-ehson va ixtiyoriy badallari hisobiga bo`lishi lozim.

SHu munosabat bilan Qonunning 15-moddasida siyosiy partiyalar faoliyatining xorijiy manbalar tomonidan bevosita yoki bilvosita moliyalashtirilishiga yo`l qo`yilmasligi to`g`risidagi konstitutsiyaviy printsiplar o`zining aniq amaliy ifodasini topgan¹.

Qonun hajm jihatdan muxtasar bo`lib, besh bo`lim va 11 moddadan iboratdir. Ushbu Qonunda turli xil normativ-huquqiy hujjatlarda mujassam topgan, siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish tartibiga doir barsha asosiy printsiplar jamlangan. Qonunda siyosiy partiyalarni moliyalashtirish printsiplari belgilangan. Qonuniylik, oshiqlik, oshkoralik va siyosiy partiyalarning teng huquqliligi moliyalashtirishning asosi hisoblanadi².

«Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida»gi Qonun o`zida partiyalar moddiy manbalarini aniq ko`rsatadi.

¹ Халилов Э.Х. Жамиятни демократлаштириш ва янгилашнинг ҳуқуқий негизи. // Фуқаролик жамияти. Умумназарий, ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий журнал. -Тошкент. - № 1 (5). 2006. -Б. 18-23.

¹ «Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида»ги Қонун. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 2004, № 5, 86-модда.

² Хамидова К.Т. Сайловлар ва сиёсий партиялар фаолиятини молиялаштириш. -Тошкент. ТДЮИ. 2004. - 39 б.

Qonunning 3-moddasida siyosiy partiyalarni moliyalashtirishning manbalari ko`rsatilgan. Bunday manbalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

birinshisi - a'zo bo`lib kirish va a'zolik badallari, shuningdek tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan mablag`lar evaziga partiyaning o`zini o`zi moliyalashtirishi;

ikkinshisi - O`zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari va fuqarolari tomonidan beriladigan xayr-ehson;

uchinshisi - davlat budjetidan ajratiladigan mablag`lar kiradi.

Qonunda rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi - siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish to`g`risidagi ma'lumotlarning jamiyat uchun mutlaq oshiqqligini ta'minlash maqsadida moliyalashtirish manbalari ustidan davlat va jamoat nazoratini ta'minlashga qaratilgan tizimni barpo etishga asoslar yaratilgan.

O`zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida"gi Qonunining 5-moddasida "Siyosiy partiyalar o`z faoliyatining moliyalashtirilishi hajmi va manbalari haqida axborot e`lon qilib turishi kerak" deyilgan. Moliyalashtirish hajmi va manbalari Qonunda aniq ifodalangan. Lekin axborot e`lon qilishning muddati (yoki muddatlar oralig`i) haqida so`z yuritilmaydi. Bunday masalalar siyosiy partiyalar ustavlariga muvofiq tartibga solinishi uchun imkoniyat berilgan¹.

Qonunda mablag`lardan foydalanish tartibi ham aniq ko`rsatilgan. Barsha mablag`lardan qonunda hamda siyosiy partiyalar ustavlarida nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanish ta'minlangan. Mablag`larni siyosiy partiya faoliyatiga zid bo`lgan yoki boshqa maqsadlarga sarflashning mumkin emasligi aniq ifodalangan. Albatta, bunday normaning kiritilishi birinchidan, qonunning demokratik standartlar talab darajasiga mos bo`lishini ta'minlasa, ikkinchidan, siyosiy partiyalar faoliyatida aniqlik, o`z maqsadi sari qonuniy ish olib borishiga olib keladi.

¹ «Сийсий партияларни молиялаштириш тўғрисида»ги Қонун. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 2004, № 5, 86-модда.

Siyosiy partiyaning o'zini o'zi moliyalashtirishi manbai ikkita bo'lib, birinshisi agar ustavida nazarda tutilgan bo'lsa, kirish va a'zolik badallari; ikkinshisi qonun hujjatlarida ruxsat etilgan tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar hisoblanadi. Mana shu ikki manbaning ishiga yana partiya o'z mulklaridan oladigan daromadlar, partiya o'tkazadigan turli xil tadbirlar (ko'rgazma tashkil qilish, ma'ruzalar o'tkazish, festivallar, xayriya konsertlari uyushtirish va shunga o'xshash boshqalar)ni kiritish mumkin.

Siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish

Xorijiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, siyosiy partiyalar harakati kun sayin rivojlanib, faoliyat doirasi jamiyatda shunshalik keng qamrovli bo'lib bormoqda. Faoliyat doirasi kengaygani sari shundan kelib shiqqan holda ularning moliyaviy ta'minoti masalasi ham hozirgi Qonunchilikda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, hozirgi sharoitda saylovlar jarayonlari tobora ko'proq moddiy xarajatlar talab qilayotgan bir davrda partiyalarning na xususiy, na ixtiyoriy shaxsiy xayriya yordami tariqasida olgan mablag'larining etishmasligi sababli ham davlatning moliyaviy yordami hayotiy zaruriyatga aylanadi. SHuning uchun ham nemis tadqiqotshilari "partiyalar davlat tomonidan to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita moliyalashtirilmasa, u holda ular yashash qobiliyatini yo'qotadilar"¹, degan fikrni bildiradi.

Siyosiy partiyalar faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish amaliyoti XX asrning 50-yillari o'rtasidan boshlangan. Bu turdagi amaliyot dastlab ushta mamlakatda (1954 yil Kosta-Rika, 1955 yil Argentina, 1959 yil Germaniya Federativ Respublikasi) boshlangan bo'lsa, 80-yillarga kelib davlat tomonidan moliyalashtirish 11 mamlakat qonunshiligida mustahkamlandi. 90-yillar o'rtasiga kelib bu amaliyot ommalashib, uni qo'llaydigan mamlakatlar soni bir nisha marta ko'paydi, hattoki, 45 ta Afrika, 17 ta sobiq sotsialistik davlatlar, ko'pchilik MDH davlatlari partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirishni qonunlashtirdilar¹,

¹ Государственное право Германии. М.: 1994, 118-бет.

¹ Юдин Ю. Финансирование политических партий в зарубежных странах. // (Правовая регламентация). – М., Государство и право, 1996, № 6, С. 144-145.

partiyalarni moliyalashtirishni huquqiy tartibga solish tobora muhim masalaga aylana bordi.

“Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida”gi qonun o`ziga xos yangiliklari bilan ajralib turadi. Avvalambor, qonunda davlat tomonidan moliyalashtirishning ush turi ko`rsatilgan:

birinshisi, partiyalarning saylovlardagi ishtirokini moliyalashtirish;

ikkinshisi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalarining faoliyatini moliyalashtirish;

uchinshisi, ularning ustav faoliyatini moliyalashtirish.

Haqiqatan ham, partiyalarning ustav faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish yangilikdir. Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish Qonunning 7-moddasida ko`rsatilgan. Bunga ko`ra, siyosiy partiya, agar u O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo`yisha ushbu palatada o`z fraksiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o`rinlarini olgan bo`lsa, ya`ni kamida 9 o`rin olgan bo`lsa, o`zining ustav faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag`larini olish huquqiga ega bo`ladi.

Partiyalarga yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan beriladigan xayriya yordami

Partiyalarni moliyalashtirishning bu yo`nalishi O`zbekiston Respublikasida “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida”gi qonunga ko`ra, quyidagi ko`rinishga ega. Qonunda hozirga qadar amalda bo`lgan, partiyalar faoliyatini moliyalashtirishda O`zbekiston yuridik shaxslari ishtirokini taqiqlovshi sheklashlarni olib tashlash bilangina kifoyalanilmagan. Balki, bu taxlit moliyalashtirish doirasini yanada kengaytirishga e`tibor berilgan. Bunga yil davomida u yoki bu partiyaga mamlakatimiz yuridik shaxslari va fuqarolari tomonidan qilinadigan xayriya-ehsonlar miqdorini sezilarli darajada ko`paytirish orqali erishiladi. Qonunning 13-moddasiga binoan O`zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari bir yil mobaynida eng kam ish haqining 5 ming baravarida siyosiy partiyalarga xayr-ehson qilishlari mumkin. Bu hozirgi kundagi eng kam ish

haqi miqdori 6530 (olti ming besh yuz o`ttiz) so`m qilib belgilangan holda, yuridik shaxslar siyosiy partiyaga bir yilda 31.650.000 (o`ttiz ikki million olti yuz ellik ming) so`mgasha miqdorda xayr-ehson qilishlari mumkin.

Qonunning 14-moddasida esa O`zbekiston fuqarolari siyosiy partiyalarga bir yil mobaynida eng kam ish haqining 500 baravari miqdorida xayr-ehson qilishi mumkinligi mustahkamlangan. Bu 3.165.000 (ush million ikki yuz oltmish besh ming)ni tashkil etadi. Siyosiy partiyalarga bunday xayr-ehson qilish ularni iqtisodiy jihatdan mustahkam bo`lishiga olib keladi¹.

Albatta, muayyan sheklashlar o`z kushida qoladi albatta. Bular orasida dastlabkisi, partiyalarning xorijiy manbalar tomonidan moliyalashtirilishini sheklash bilan bog`liqdir. Qonunda ana shu masalalar aniq shaklda ifoda qilingan. Xususan, Qonunning 15-moddasida shunday deyilgan:

“Siyosiy partiyalarga pul mablag`lari shaklidagi, mol-mulk berish, xizmatlar ko`rsatish, ishlar bajarish tariqasidagi (shu jumladan grantlar ajratish, texnik yordam ko`rsatish orqali, safarlar bilan, shuningdek O`zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida o`tkaziladigan treninglar, seminarlar, konferentsiyalar bilan bog`liq xarajatlarga haq to`lash vositasida) xayr-ehson quyidagilar tomonidan berilishiga yo`l qo`yilmaydi:

chet davlatlar;

chet davlatlarning yuridik shaxslari, ularning vakolatxonolari va filiallari;

xalqaro tashkilotlar, ularning vakolatxonolari va filiallari;

chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar;

chet el fuqarolari;

fuqaroligi bo`lmagan shaxslar.”

Mamlakat ishkarisidagi moliyalashtiruvshi manbalar borasidagi sheklashlar quyidagilardan iborat:

fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari;

diniy tashkilotlar;

¹ Хамидова К.Т. Сайловлар ва сиёсий партиялар фаолиятини молиялаштириш. -Тошкент. ТДЮИ. 2004. - 39 б.

nomi yashirilgan yoki faqat taxallusi ko`rsatilgan shaxslar tomonidan siyosiy partiyalarga pul mablag`lari shaklida, mol-mulk berish, xizmatlar ko`rsatish, ishlar bajarish tariqasida xayr-ehson berilishiga yo`l qo`yilmaydi.

Qonunda, shuningdek, moliyaviy va boshqa mablag`larning kelib tushishi hamda siyosiy partiyalar ulardan belgilangan maqsadda foydalanishi ustidan jamoat va davlat nazoratining ush turi ko`zda tutilgan.

Birinshisi, siyosiy partiyalarning moliya manbalari va mablag`lar sarflanishi to`g`risidagi oshiq moliyaviy hisobdorligi;

ikkinshisi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yoki u vakil qilgan organ oldida partiyalarning hisoboti;

uchinshisi, siyosiy partiyalar moliyaviy hisobdorligining Hisob palatasi va O`zbekiston Respublikasining boshqa moliyaviy nazorat organlari tomonidan muntazam tekshirib borilishi.

Ushbu Qonunning o`ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, unda siyosiy partiyalar moliyalashtirish to`g`risidagi Qonunchilikni buzganlik uchun javobgar ekanliklari bilangina sheklanib qolinmagan. Balki, ularning tegishli davlat organlari qarorlari va ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan O`zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilish huquqi ham ko`zda tutilgan. Bunday qoida shu paytgasha mavjud qonun hujjatlarining birontasida qayd etilmagan edi.

2.4. Siyosiy partiyalar faoliyatini to`xtatish hamda bekor qilish asoslari va tartibi

Davlat va jamiyat hayotida har bir narsaning ibtido va intihosi, avvali va oxiri bo`lganidek, hesh bir narsaning muddatsiz, bemuhlat mavjudligi kuzatilmaydi. Huquqiy maqomga ega bo`lish haqida qonun hujjatida so`z yuritilgan huquqiy munosabatlar qonuniy tartibga ko`ra: avval tashkil topishi, faoliyat yuritishi, so`ngra faoliyatini to`htatish yoki tugatish to`g`risidagi normalarni mustahkamlaydi. Bunday asosli va tabiiy tartibda o`rnatilgan qoidalar siyosiy partiyalar yo`nalishidagi Qonunchilik tizimiga ham taalluqlidir.

Siyosiy partiyalar faoliyatini to'xtatish yoki tugatish qanday asoslarga ko'ra yuzaga keladi? Qonunda qaysi holatlar nazarda tutilgan?-degan savollar yuzaga kelishi mumkin.

Siyosiy partiyalar faoliyatini to'xtatish O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin:

birinshisi, siyosiy partiyalar faoliyatini to'xtatib turish to'g'risidagi 10-modda;

ikkinshisi, siyosiy partiyalar faoliyatini tugatish to'g'risidagi 11-modda.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi siyosiy partiyaning ro'yxatga oluvchi vakolatli organ bo'lsada, lekin partiya faoliyatini to'xtatib turish yoki tugatish haqidagi hal qiluvchi qarorni qabul qilish huquqiga ega emas. Lekin partiya faoliyatini to'xtatib turish yoki tugatishda muhim rol o'ynashi shunda ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi mazmunidan kelib shiqib siyosiy partiya faoliyatining "doimiy kuzatuvshisi" sifatida ko'rinadi. Unga ko'ra: "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunni, boshqa qonun hujjatlarini yoki o'z ustavini buzgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonun hujjatlarining yoki ustavning qaysi normalari buzilganligini ko'rsatgan holda bu xususda partiya rahbar organlariga yozma tarzda xabar qiladi va bunday buzishlarni bartaraf etish uchun muddat belgilaydi. Agar buzishlar belgilangan muddat davomida bartaraf etilmasa, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi siyosiy partiyaning faoliyatini olti oygacha muddatga to'xtatib turishi mumkin"¹.

Qonun normasi mazmunida ta'kidlanganidek, Adliya vazirligi siyosiy partiya faoliyatini ham Qonunchilik talablariga rioya qilish hamda o'z ustav faoliyatiga rioya qilishi ustidan doimiy kuzatuvni olib boradi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Сийсий партиялар тўғрисида»ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997, № 2, 36-модда.

Qonunning 10-moddasi birinshi qismida, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonun hujjatlarining yoki ustavning qaysi normalari buzilganligini ko'rsatgan holda bu xususda partiya rahbar organlariga yozma tarzda xabar qiladi va bunday buzishlarni bartaraf etish uchun muddat belgilaydi, deb muddat masalasida aniqlik kiritilmagan. **Xuddi shu moddaning davomida sud tomonidan partiya faoliyati qansha muddatgacha to'xtatib turilishi aniq ko'rsatilganligini inobatga olsak, qonun buzilishlarini bartaraf etish uchun adliya organining belgilaydigan muddatini ham "ma'lum muddatgacha" deb belgilash maqsadga muvofiqdir.**

Qonunga ko'ra, Bosh prokuror ham partiya faoliyatini to'xtatish haqida Oliy sudga taqdimnoma kiritishi mumkin bo'lib, bu ham bejiz belgilanmagan. Bunga, siyosiy partiyalar faoliyatida Qonunchilikka qanshalik rioya etilishi, noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish kabi ehtiyot shoralari qo'llanilishi sababdir.

Siyosiy partiya faoliyatini to'xtatish yoki to'xtatmaslik haqidagi hal qiluvshi qarorni qabul qilish huquqi sud organiga berilganligi esa, davlatimiz o'z qonunshiligi takomillashuvi bosqishida huquqiy davlat qurish g'oyasiga tayangan holda ish tutganini ta'kidlash o'rinli. Zero, huquqiy davlatda u jismoniy shaxs bo'ladimi yoki yuridikmi, uning ijtimoiy layoqatliligi yuzasidan faqatgina sud qaror shiqarishi adolatli mezon hisoblanadi.

Qonunchilikda belgilanishiga ko'ra, siyosiy partiya faoliyatini to'xtatib turish yoki tugatish asoslari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1) Partiya faoliyatini to'xtatib turish asoslari:

- amaldagi Qonunchilikka zid harakatlar sodir qilishi;
- o'z ustavini buzishi yoki unda ko'rsatilgan qoidalarga zid harakatlar qilishi.

2) Partiya faoliyatini tugatish asoslari:

- o'z ustaviga muvofiq siyosiy partiyaning o'z tashabbusi bilan tarqalishi;
- amaldagi Qonunchilikka zid harakatlar sodir etganda vakolatli organ tomonidan majburiy ravishda¹.

¹ Сиёсий партиялар мамлакатни модернизациялаш жараёнида. Амалий қўлланма. ЎзР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. Тузувчилар: Н.Норматов, М.Миракулов,

Bu ikki harakatning o'ziga xos xarakterli tomonlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasida "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi siyosiy partiyaning faoliyatini olti oygacha muddatga to'xtatib turishi mumkin", deyiladi. **SHu o'rinda bir holat yuzaga keladi. YA'ni, sud siyosiy partiya faoliyatini qonunda nazarda tutilgan muddatga to'xtatganda, partiya bu muddatdan oldin kamshiliklarni bartaraf etsa, sud qarori ko'rsatilgan muddatdan ilgari to'xtatiladimi? – Bu savolga Qonunchilikda aniq javob yo'q.**

Partiyaning faoliyati to'xtatib turilgan vaqtda uning qanday faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emasligi 10-moddaning ikkinchi qismida aniq sanab o'tilgan:

- partiyaning har qanday ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi;
- targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishi;
- saylovlarda ishtirok etishi.

Siyosiy partiya faoliyatini to'xtatib turish bu – partiya barsha huquqlaridan butunlay mahrum bo'ldi, degani emas. Demak, sanab o'tilgan ush turdagi faoliyatdan tashqari partiya doirasidagi (ichki va tashqi) barsha faoliyat yo'nalishlarini amalga oshirish ta'qiqlanmagan. Bular jumlasiga – yig'ilishlar, majlislar yoki s'ezdlar o'tkazish, yangi a'zolar qabul qilish, moliyaviy masalalarni hal etish, boshqa partiyalar bilan munosabat o'rnatish yoki davom ettirish va boshqalar kirishi mumkin.

YUqorida siyosiy partiyaning ikki asosda tugatilishi haqida gapirib o'tdik. Partiyaning o'z tashabbusi bilan tugatilishi haqida O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunning 7 (siyosiy partiyalarning ustavi) va 11(siyosiy partiyaning faoliyatini tugatish)-moddalarida tegishli normalar mustahkamlangan. Partiya ixtiyoriy ravishda o'zini o'zi tugatish haqida qarorga kelishi uchun quyidagi mazmundagi sabablarni ko'rsatish mumkin:

- partiya o'z faoliyatini davom ettirishdan ma'no yo'q deb hisoblasa;
- siyosiy faoliyat olib borish va o'z tarafdorlari manfaatlarini himoya qilish uchun imkoniyati etarli bo'lmasa;
- partiyaning ichki hayoti va munosabatlarida hal etib bo'lmaydigan ziddiyatlar kushayib ketsa¹.

Qonunning siyosiy partiyalarning ustavi haqidagi 7-moddasida ustavda ko'rsatilishi lozim bo'lgan ro'yxatda “partiya faoliyatini qayta tashkil etish yoki to'xtatish tartibi” deb nomlangan band o'rin olgan. SHunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan har bir siyosiy partiya o'z ustavida partiyaning tugatish haqidagi bandni kiritishi shartdir.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi siyosiy partiyalar ustavi partiya tugatilishi yuzasidan o'rganilganda, quyidagi tasavvur yuzaga keladi:

Siyosiy partiya faoliyatini vakolatli organ tomonidan tugatish to'g'risida Qonunning 11-moddasi 3-moddaga havola qiladi. Unda: “Quyidagi siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi ta'qiqlanadi:

- konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvshi;
- O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi shiquvshi;
- urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvshi;
- xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvshi;
- milliy va diniy ruhdagi partiyalar” deyiladi².

Siyosiy partiyalar faoliyatini to'xtatishdan farqli ravishda ular faoliyatini tugatish mohiyatiga ko'ra birmunsha ajralib turadi. YA'ni, hesh qaysi davlat siyosatida siyosiy partiyalar o'z faoliyatini to'xtatib turish haqida qaror qabul qilmaganligi va bu haqda Qonunchilikda tegishli normaning o'rnatilmaganligi kuzatiladi. Lekin o'z faoliyatini tugatish haqida siyosiy partiyalar ixtiyoriy ravishda qaror qabul qilishi mumkinligi ham siyosiy partiyalar faoliyati to'g'risidagi Qonunda hamda har bir partiyaning ustavida tegishli normalar bilan

¹ Рахматуллаев Т. Сийсий партия ва демократик тамойиллар. -Тошкент: 2000 йил. -76 б.

² Бердиқулов С. Демократик янгилашни жараянларида сийсий партияларнинг ўрни.Т.: Ўзбекистон. 2011. - 23-б;

albatta belgilib qo'yilishi va tartibga solinishi kuzatiladi. Bu holatda ulardan Qonunda talab qilinadigan harakat ro'yxatga olishga vakolatli bo'lgan organga tegishli muddat va tartibda xabar qilishlari talab qilinadi.

Siyosiy partiyaning tashabbusi bilan o'zini o'zi tugatish haqida qaror qabul qilishi uning qaysi organiga vakolat sifatida berilganligi, partiyaning tugatish to'g'risida qaror qabul qilish lozimligi Qonunning siyosiy partiyaning tugatish haqidagi 11-moddasida yoritilmagan.

Siyosiy partiyalar tuzilishida muhim tashkiliy-siyosiy tadbir sifatida rol o'ynaydigan s'ezd uni tugatishda ham yakunlovchi qadam bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Ko`ppartiyaviylik tizimining mavjud bo`lishi va uning ijtimoiy voqelikni to`la aks ettirgan holda faoliyat yuritishi – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy garovidir. Partiyalarning demokratiyani shakllantirishdagi bevosita ta'siri ularning jamoat tashkiloti ekanliklaridan kelib chiqadi, ya'ni siyosiy partiya xalq hokimiyatshiligini amalga oshirish maqsadida aholining ijtimoiy fikrini ifodalovshi yirik tashkilot sifatida namoyon bo`ladi.

Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: “Partiya degani – bu mansab uchun, lavozim uchun kurash emas, balki muayyan g`oya uchun, uning jamiyatda ustuvor bo`lishi va ro`yobga shiqishi uchun kurash demakdir. Agar partiya ma'nosini mana shu nuqtai nazardan tuchunar ekanmiz, qansha partiya bo`lsa bo`laversin, ularning faoliyatiga tegishli sharoit yaratib beriladi¹”. O`z navbatida, jamiyat siyosiy maydonida turli xil partiyalarning mavjud bo`lishi siyosiy fikrlar hamda qarashlarning xilma-xilligi sharoitini yuzaga keltiradi. Oxirgi yillarda demokratik islohotlarni yanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo`nalishlaridan biri bu siyosiy partiyalarning roli va ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan. YUqoridagilardan kelib shiqib biz siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish bo`yisha quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. O`zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to`g`risida”gi Qonunning 6-moddasida siyosiy partiyalarni tuzish tartibi va shartlari keltirilgan. Ushbu shartlar qatoriga “har bir siyosiy partiya kamida O`zbekiston Respublikasining sakkizta hududida o`z filiallariga ega bo`lishi shart” degan qoida kiritilsa, siyosiy partiyalar kamida respublikamizning yarmida nafaqat tarafdorlarining bo`lishiga erishadi balki, ushbu xududlarda faoliyat olib borish uchun tashkiliy masalalarni ham oldindan hal qilgan bo`ladi. Zero, siyosiy partiyalar nafaqat markazda balki barsha ma'muriy tuzilmalarda bir xilda faoliyat yuritishlari lozim.

2. Qonunning 10-moddasida siyosiy partiyaning faoliyatini to`xtatib turish shartlari va tartibi berilgan. Tadqiqotshining fikrisha, ushbu moddaning uchinshi

¹ Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996. –Б.351

qismiga “siyosiy partiyalar faoliyati vakillik organlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezident saylovi kampaniyasi boshlangan kundan e‘tiboran toki saylov natijalari e‘lon qilungunsha to‘xtatilib turilmaydi, ushbu qonunning 3-modda 2-qismidagi holatlar bundan mustasno” degan qoida kiritilsa, maqsadga muvofiqdir. SHunki, siyosiy partiyalarning asosiy maqsadi saylovlar orqali o‘z dasturidagi vazifalarni amalga oshirishdir.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasiga “Siyosiy partiyaning ketma-ket ikki marotaba vakillik organlariga bo‘ladigan saylovlarda ishtirok etmasligi, uning faoliyatini tugatish uchun asos bo‘ladi” degan qoidani kiritish maqsadga muvofiq. SHunki, mamlakat miqyosida o‘tkaziladigan saylovlarda ishtirok etish siyosiy partiyaning eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Siyosiy partiyaning jamiyatda qanshalik obro‘ga ega ekanligini belgilab beruvshi omil ham ularning saylovlarda qo‘lga kiritadigan natijalariga qarab belgilanadi. Agar siyosiy partiya saylovlarda ishtirok etmas ekan, uning oddiy jamoat birlashmasidan hesh qanday farqi qolmaydi.

4. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunining 22-moddasi 3-qismida: “Deputatlikka nomzod tanlash tartibini siyosiy partiyalarning o‘zlari hal etadilar” degan qoida mustahkamlangan. Tadqiqotshining fikrisha, ushbu tartib qonunda aniq belgilanishi lozim. Nomzodlar ko‘rsatish jarayoni barsha partiyalarning qurultoularida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tishi maqsadga muvofiq.

5. Saylov jarayonida siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish masalalari asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunining 64-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar davlat mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Tadqiqotshining fikrisha, Qonunchilik palatasiga saylov kampaniyasi davrida siyosiy partiyalarning saylov fondlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. SHunda har bir partiya o‘z imkoniyati darajasida saylovlarda o‘zini namoyish etadi. Bu esa haqiqiy sog‘lom raqobatni vujudga keltiradi.

6. O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasida "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi siyosiy partiyaning faoliyatini olti oygacha muddatga to'xtatib turishi mumkin", deyiladi. SHu o'rinda bir holat yuzaga keladi. YA'ni, sud siyosiy partiya faoliyatini qonunda nazarda tutilgan muddatga to'xtatganda, partiya bu muddatdan oldin kamshiliklarni bartaraf etsa, sud qarori ko'rsatilgan muddatdan ilgari to'xtatiladimi? – Bu savolga Qonunchilikda aniq javob yo'q. Bu masalaga oydinlik kirituvshi normani mustahkamlash lozim.

7. Ma'lumki, siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarida rivojlanish bosqishlarini belgilash, tajriba almashish, keng hamkorlik qilish maqsadlarida chet davlatlar siyosiy partiyalari bilan turli yo'nalishlarda aloqalar o'rnatishi ijobiy holat sifatida kuzatiladi. SHu bilan birga O'zbekiston parlamenti faoliyatida chet davlatlar siyosiy partiyalari fraktsiyalari a'zolari yoki rahbarlarining davlatimizga rasmiy tashriflari ko'plab kuzatiladi. YUqoridagilardan kelib shiqib, O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunga "Siyosiy partiyalarning xalqaro aloqalari" to'g'risida modda kiritish o'rinlidir.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент, “Ўзбекистон” 2014 й
2. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш-устувор мақсадимиз. Т. “Ўзбекистон”, 2010
3. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти институтларини ривожлантириш концепцияси. Т. “Ўзбекистон”, 2010й.
4. Каримов И.А. Ватан озодлиги-Олий саодат. Т. “Ўзбекистон”, 2000й. 62 бет
5. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. Т. Тошкент. 2007й. 32 бет
6. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7-жилд. Т. “Ўзбекистон”, 1999й 310 бет
7. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмади. 13 жилд. Т. “Ўзбекистон”. 2005 й. 87 бет
8. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш-давр талаби. 5 жилд. Т. “Ўзбекистон”, 1997й. 122-123 бетлар.
9. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-жилд. Т. “Ўзбекистон”, 2002 й. 157 бет
10. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида”ги Конституциявий қонуни. Фуқаролик жамияти. 2007 йил. 1 сон.
11. Ўзбекистон Республикасининг “Сиёсий партиялар тўғрисида”ги қонуни. Т. 1997й.
12. Ўзбекистон Республикасининг “Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида”ги қонуни. Т. 2004й.
13. “Инсон ҳуқуқлари Умумжаҳон Декларацияси” 1948 йил 10 декабр // Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. Т. “Адолат”. 2004 й. 34 бет

14. Ўзбекистон Республикасининг сайлов тўғрисидаги қонунлари. Т. “Адолат”. 2014 й
15. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов компанияси қарори. Ишонч. 2014 й. 27-декабр.
16. Абдурахмонов М. Аҳоли билан ишлаш-сиёсий партияларнинг устувор вазифаси. Фуқаролик жамияти. 2007 й. 2-сон
17. Арановский К.В Государственное право зарубежных стран. М. 1998г стр 303.
18. Беков И. Давлат бошқарувида сиёсий партияларнинг роли. Ҳуқуқ ва бурч. 2009 й. 1 сон
19. Бердиқулов С. Демократик янгиланиш ва сиёсий партиялар . Тафаккур. 2010 й. 4 сон
20. Беков И. Аббосхўжаев Ш. Сиёсий партиялар ва Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови. Т. “Ўзбекистон”, 2007 й.
21. Беков И. Ҳамидова К. Сайлов ва сиёсий партиялар. Т. “Ўзбекистон”, 2014 й
22. Мирзо –Улуғбек Абдусаломов. Эркин ва демократик сайловларни ўтказишни таъминлаш. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2014 й. 3-сон
23. Мирзо-Улуғбек Абдусаломов. Очик ва эркин сайловлар-демократия асоси. Туркистон 2014 й. 27 сентябр
24. Мирзо-Улуғбек Абдусаломов. Президент сайлови-эл юртимиз фаровон келажагини таъминлашнинг муҳим омили. Халқ сўзи. 2015 й. 19 феврал.
25. Саифназаров И. Сиёсий партиялар ва давлат бошқаруви органлари ҳамкорлиги. Фуқаролик жамияти. 2007 й. 2 сон
26. Қосимов Р. Сиёсий партия ва ижроия ҳокимият органларининг мустақамланиши. Фуқаролик жамияти. 2007 й. 2 сон
27. Раҳимова М. Президент сайлови: Миллий ва хорижий тажриба. Т. “Ўзбекистон”, 2015 й

28. Назаров Қ. Тадрижийлик тамойили: демократик сайловлар ва сиёсий партиялар. XXI аср 2009й. 5 ноябр.
29. Одинаев А. Сайлов ва сиёсий партиялар. Ҳуқуқ.2009й. 29 октябр
- 30.Отамуратов С. Сайловолди ташвиқоти қизғин паллага кирди. Халқ сўзи. 2015й. 11 март.
31. Исломов З. Сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш-фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг муҳим шарти. Фуқаролик жамияти. 2007й. 1-сон
32. Тадбиркорлар ва ишбилармонлар харакати- Ўзбекистон Либерал демократик партияси Устави. Т.2006 й. 40 бет
- 33.Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6-жилд. “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти.-Т. 2003й. 698 бет
34. Якубов Б. Сиёсий партиялар: ахборот-коммуникация технологиялари. Жамият ва бошқарув. 2008й. 4 сон
- 35.Якубов Ш. Сайлов жараёнларида сиёсий партия ваколатли вакили ва кузатувчисининг иштироки. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2014й. 3 сон
36. Жумаев А. Демократик жамиятда сайлов ва сиёсий партиялар. Халқ сўзи. 2009й. 27 октябр
- 37.Жумаев О. Сиёсий партияларнинг сайлов жараёнидаги этикаси. Т. 2004й. 3 бет